



JINOYAT PROTSESSIDA TORTISHUV TAMOYILINI TA'MINLASHDA HIMOYACHI ISHTIROKINING AMALIY MUAMMOLARI, ULARNING HUQUQIY YECHIMLARI

Toshkent davlat yuridik universiteti

Advokatlik faoliyati mutaxassisligi talabasi

Raximova Surayyo Islom qizi

e-mail: surayyorakhimova5@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada jinoyat protsessining tortishuv tamoyili asosida himoyachining dalil to'plash imkoniyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tortishuv tamoyilining samarali amalga oshirilishida himoyachining protsessual faoliyati, xususan, dalil to'plash bilan bog'liq vakolatlari va ularni amalga oshirish mexanizmlarini o'rganishdan iborat.

Maqolada amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilik normalari, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyoti tahlili asosida himoyachining dalil to'plash imkoniyatlari yetarli darajada ta'minlanmaganligi, ayblov va himoya tomonlari o'rtasida protsessual tenglik to'liq ta'minlanmayotganligi asoslab beriladi. Shu bilan birga, himoyachi tomonidan mustaqil dalillar yig'ish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar aniqlanadi.

Tadqiqot natijasida jinoyat protsessida tortishuv tamoyilini to'laqonli ta'minlash maqsadida himoyachining dalil to'plash vakolatlarini kengaytirish, protsessual mexanizmlarni takomillashtirish hamda amaliyotda mavjud to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

KALIT SO'ZLAR. Jinoyat protsessi, tortishuv tamoyili, himoyachi, advokat, dalil to'plash, protsessual tenglik, ayblov va himoya, sud muhokamasi, jinoyat-



protsessual huquq, protsessual kafolatlar, shaxsni o'z roziligi bilan so'rov (tushuntirish) olish.

Jinoyat protsessida tortishuv tamoyili demokratik huquqiy davlatlarda adolatli sudlovni ta'minlashning eng muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu tamoyil ayblov va himoya tomonlarining protsessual tengligi, ularning o'z pozitsiyalarini erkin asoslash imkoniyati hamda sud oldida teng sharoitlarda ishtirok etishini nazarda tutadi. Shu jihatdan tortishuv tamoyilining amalda to'liq ta'minlanishi jinoyat ishlarini xolis va adolatli hal etishning asosiy kafolatidir. Bugungi kunda jinoyat protsessida himoyachining roli va uning dalil to'plash bilan bog'liq vakolatlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Amaldagi qonunchilikda himoyachiga ma'lum protsessual huquqlar berilgan bo'lsa-da, ularning amaliyotda to'liq va samarali amalga oshirilishi bir qator muammolar bilan to'qnash kelmoqda. Xususan, himoyachining mustaqil dalil yig'ish imkoniyatlari cheklanganligi, davlat organlari va boshqa subyektlardan axborot olish jarayonidagi byurokratik to'siqlar hamda protsessual tenglikning yetarli darajada ta'minlanmaganligi tortishuv tamoyilining mazmunan to'liq ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy jinoyat protsessida taraflar tengligi va raqobat asosidagi sud muhokamasini ta'minlashga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, himoyachining dalil to'plashdagi rolini kuchaytirish va uning protsessual imkoniyatlarini kengaytirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi himoyachining dalil to'plash vakolatlarini tortishuv tamoyili kontekstida kompleks tahlil qilish, mavjud qonunchilikdagi bo'shliqlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish bilan belgilanadi. Shuningdek, maqolada himoya va



ayblov tomonlari o‘rtasidagi protsessual muvozanatni ta’minlashga xizmat qiluvchi takliflar ilgari suriladi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati jinoyat protsessi tamoyillari, xususan tortishuv tamoyilining mazmunini chuqurroq anglash va himoyachining protsessual maqomini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Amaliy ahamiyati esa jinoyat protsessida huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish, himoyachining dalil to‘plash faoliyatini samarali tashkil etish hamda protsessual tenglikni ta’minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar bilan izohlanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Mazkur tadqiqot jinoyat protsessida tortishuv tamoyilini ta’minlashda himoyachining dalil to‘plash faoliyati, uning protsessual maqomi va amaliy muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar hamda xalqaro tajriba asosida tahlil qilindi. Avvalo, ushbu tadqiqotning asosiy normativ manbalarini O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, Jinoyat kodeksi hamda “Advokatura to‘g‘risida”gi qonun tashkil etadi. Ushbu hujjatlarda jinoyat protsessining asosiy prinsiplari, jumladan tortishuv tamoyili, taraflarning protsessual tengligi hamda himoyachining huquq va vakolatlari belgilangan. Shuningdek, Lex.uzdagi normativ hujjatlar tahlili himoyachining dalil to‘plash huquqi mavjud bo‘lsa-da, uning amaliy mexanizmlari yetarli darajada aniq reglamentatsiya qilinmaganini ko‘rsatadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jinoyat protsessida dalillar instituti va himoyachining rolga oid masalalar keng o‘rganilgan. Xususan, Shaxzod Isroilovning “Jinoyat ishlarida dalil tushunchasi va ularni to‘plash va mustahkamlash faoliyati” nomli maqolasida dalillarning huquqiy tabiati, ularni to‘plash tartibi hamda protsessual mustahkamlash mexanizmlari tahlil qilingan va bu sohada takomillashtirish zarurligi qayd etilgan. Shuningdek, Zokirjon Boymurodov muallifligidagi “Jinoyat protsessida advokat



tomonidan to‘plangan ma’lumotlarning huquqiy tabiati” mavzusidagi ilmiy tadqiqotda advokat tomonidan yig‘ilgan materiallarning dalil sifatida tan olinishi masalasi muhokama qilinib, milliy qonunchilikda bu borada huquqiy noaniqliklar mavjudligi ta’kidlangan . Ushbu ishda O‘zbekiston va xorijiy davlatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya) tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, himoyachining dalil to‘plashdagi mustaqilligini kengaytirish zarurligi asoslab berilgan. Alamonova Shoira muallifligi ostidagi “Ishni sudga qadar yuritish bosqichida tortishuv prinsipi va himoyachi faoliyati”ga oid maqolada esa dastlabki tergov bosqichida taraflar tengligi to‘liq ta’minlanmasligi, himoyachining protsessual imkoniyatlari cheklanganligi va bu holat tortishuv tamoyilining amaliy samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda, xususan, M. Cappelletti, J. Jackson va A. Ashworth kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalarda jinoyat protsessida “equality of arms” (tomonlar tengligi) prinsipi asosiy o‘rin tutadi. Ularning yondashuviga ko‘ra, himoya va ayblov tomonlari dalil yig‘ish va uni sudga taqdim etishda teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozim. Yevropa Inson huquqlari sudi amaliyoti ham mazkur masalani rivojlantirgan. Sud qarorlarida (masalan, “Mirilashvili v. Russia”) himoyaning samarali ishtiroki va dalillarga erkin kirish huquqi adolatli sudlovning ajralmas qismi sifatida talqin qilingan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston jinoyat protsessida himoyachining dalil to‘plash huquqi normativ jihatdan mavjud bo‘lsa-da, uning amaliy qo‘llanilishi va protsessual kafolatlari yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa tortishuv tamoyilining to‘liq amalga oshirilishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli, mazkur tadqiqot mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish, amaldagi muammolarni aniqlash va himoyachining protsessual vakolatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.



Advokatura to'g'risidagi qonun 6-moddasiga ko'ra advokat:

1. Yuridik yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini, mutaxassislarning ma'lumotnomamaslahatlarini ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) roziligi bilan so'rash va olish;

2. Ishga taalluqli axborotdan xabardor bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish va ularning roziligi bilan yozma tushuntirish olish;

3. To'plangan materiallarni o'z ishonch bildiruvchi shaxsining (himoya ostidagi shaxsning) ishi yuzasidan ish yuritayotgan sudlarga va boshqa davlat organlariga taqdim etish;

Bundan tashqari JPK 87-moddasiga ko'ra Himoyachi jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash va taqdim etishga haqli bo'lib, ular jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yilishi, shuningdek tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o'tkazish va jinoyat ishini sudga ko'rish jarayonida majburiy baholanishi lozim. Ushbu dalillar: **ishga taalluqli axborotga ega bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish hamda ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olish; davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga so'rov yuborish hamda ulardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar va boshqa hujjatlarni olish orqali to'planishi** mumkin.

4. Advokat yuridik yordam ko'rsatayotgan ishdagi zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan nusxalar olish yoki ularda ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish, bunda davlat sirlari, tijorat siri yoki boshqa sirni o'z ichiga olgan axborotni oshkor qilmaslik;



Yuqoriagi qonun normalaridan bizga ma'lumki himoyachi yuqorida ko'rsatilgan dalillarni to'plash va uni dastlabki tergov va sud protsesslari davomida taqdim etish huquqiga ega. Ammo O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi 81-moddasiga ko'ra Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi. Bu ma'lumotlar **guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy, yozma va raqamli dalillar, ovoqli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanadi.** Ushbu moddaga ko'ra, jinoyat ishi bo'yicha dalillar — surishtiruvchi, tergovchi va sud tomonidan qonunda belgilangan tartibda aniqlangan faktik ma'lumotlar hisoblanadi. Ya'ni, dalil sifatida e'tirof etiladigan ma'lumotlar asosan protsessual subyektlar (tergov organlari va sud) faoliyati orqali shakllantiriladi. Natijada quyidagi normativ kolliziya (ziddiyat) yuzaga keladi, bir tomondan, himoyachi mustaqil ravishda dalil to'plash huquqiga ega; ikkinchi tomondan, dalil sifatida e'tirof etish mexanizmi asosan davlat organlari faoliyati bilan bog'langan. Bu esa amaliyotda himoyachi tomonidan yig'ilgan materiallarning "to'liq huquqiy dalil" sifatida tan olinmasligiga yoki ularning baholanishi ikkilamchi darajaga tushib qolishiga olib keladi. Shuningdek, advokat tomonidan olingan yozma tushuntirishlar yoki boshqa ma'lumotlar ko'pincha protsessual shaklga ega emasligi sababli, ular sud tomonidan dalil sifatida emas, balki qo'shimcha axborot sifatida qabul qilinadi. Bu holat esa tortishuv tamoyilining asosiy talabi bo'lgan taraflar tengligini amalda zaiflashtiradi. Mazkur ziddiyatning yana bir muhim jihati shundaki, himoyachi dalil to'plashda tashabbus ko'rsatsa-da, ushbu dalillarni protsessual jihatdan "legallashtirish" uchun baribir tergov organlariga murojaat qilishga majbur bo'ladi.



Bu esa himoyaning mustaqilligini cheklaydi va uni ayblov tomoni bilan bog‘liq holda faoliyat yuritishga majbur etadi. Shu sababli, amaldagi qonunchilikda himoyachining dalil to‘plash huquqi mavjud bo‘lsa-da, uning real protsessual samaradorligi yetarli darajada ta‘minlanmagan. Bu esa jinoyat protsessida tortishuv tamoyilining to‘liq amalga oshirilishiga jiddiy to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Jinoyat protsessida tortishuv tamoyilining samarali amalga oshirilishi bevosita himoyachi va ayblov tomonining real protsessual imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanatga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan fikrlar himoyachining dalil to‘plash faoliyatidagi mavjud muammolarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xususan, Alamonova Shoira muallifligi ostidagi “Ishni sudga qadar yuritish bosqichida tortishuv prinsipining ta‘minlanishi va uning himoyachi faoliyatidagi ahamiyati” nomli maqolada ilgari surilgan quyidagi fikr alohida e‘tiborga loyiq:

“Dastlabki tergov bosqichida himoyachining dalil to‘plash imkoniyatlari formal jihatdan mavjud bo‘lsa-da, ularning real amalga oshirilishi protsessual mexanizmlar bilan yetarli darajada ta‘minlanmagan.”¹

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, milliy qonunchilikda himoyachining vakolatlari normativ darajada e‘tirof etilgan bo‘lsa-da, ularning amaliy ishlash mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu holat huquq nazariyasida “deklarativ norma” fenomeni sifatida tavsiflanadi, ya‘ni norma mavjud, biroq uning ijrosi samarali kafolatlanmayapti Natijada, himoyachi dalil to‘plash jarayonida tashabbus ko‘rsatgan taqdirda ham, u ko‘pincha tashqi

¹ Ishni sudga qadar yuritish bosqichida tortishuv prinsipining ta‘minlanishi va uning himoyachi faoliyatidagi ahamiyati // *Cyberleninka*. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ishni-sudga-qadar-yuritish-bosqichida-tortishuv-prinsipining-ta-minlanishi-va-uning-himoyachi-faoliyatidagi-ahamiyati/viewer>



subyektlarga — davlat organlari, mansabdor shaxslar va boshqa ishtirokchilarga bogʻliq holda harakat qilishga majbur boʻladi.

Shu bilan birga, Sh. Isroilovning “Jinoyat ishlarida dalil tushunchasi va ularni toʻplash va mustahkamlash faoliyati” nomli maqolasida ilgari surilgan:

“Dalillarni toʻplash faqat ularni aniqlash bilan cheklanmaydi, balki ularni protsessual jihatdan mustahkamlash va rasmiylashtirishni ham oʻz ichiga oladi”². degan ilmiy xulosa muammoning yana bir muhim qatlamini ochib beradi.

Mazkur fikrni tahlil qilar ekanmiz, jinoyat protsessida dalilning yuridik kuchga ega boʻlishi faqatgina faktik maʼlumotni topish bilan emas, balki uni qonunda belgilangan protsessual shaklda mustahkamlash bilan bogʻliqligini koʻramiz. Aynan shu bosqichda himoyachining imkoniyatlari sezilarli darajada cheklanadi. Chunki protsessual mustahkamlash (masalan, bayonnoma tuzish, protsessual harakat oʻtkazish) vakolatlari asosan tergov organlariga tegishlidir. Bu esa himoyachi tomonidan yigʻilgan maʼlumotlarning “toʻliq huquqiy dalil” maqomini olishiga toʻsqinlik qiladi.

Advokat tomonidan toʻplangan materiallarning huquqiy tabiati haqidagi ilmiy yondashuvlar ham ushbu muammoni tasdiqlaydi. Advokat tomonidan toʻplangan maʼlumotlar mustaqil dalil sifatida emas, balki protsessual tekshiruvni talab qiluvchi axborot sifatida baholanmoqda. Bu holatni chuqurroq tahlil qilganda, jinoyat protsessida dalillar tizimining “markazlashgan” xarakterga ega ekanligini koʻrish mumkin. Yaʼni, dalillarni shakllantirish va ularga yakuniy huquqiy baho berish vakolati asosan davlat organlari qoʻlida jamlangan. Himoyachi esa ushbu tizimda

² Isroilov Sh.I. Jinoyat ishlarida dalil tushunchasi va ularni toʻplash hamda mustahkamlash faoliyati // ilmiy maqola.



ko‘proq “yordamchi” rolni bajaradi. Bu esa tortishuv tamoyilining mohiyatiga — ya’ni taraflarning teng huquqliligi va mustaqilligiga zid keladi.

Xorijiy ilmiy konsepsiyalar, xususan, Andrew Ashworth va John Jackson tomonidan ishlab chiqilgan “equality of arms” prinsipi ushbu masalaga mutlaqo boshqacha yondashuvni taklif etadi. Unga ko‘ra:

“Taraflar o‘z ishini himoya qilish uchun dalillarni yig‘ish va taqdim etishda teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozim.”³

Mazkur prinsip faqat formal tenglikni emas, balki “real tenglik”ni nazarda tutadi. Ya’ni, himoya tomoni ayblov bilan bir xil darajada dalil to‘plash, ularni mustahkamlash va sudga taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Aks holda, sud jarayoni haqiqiy tortishuv emas, balki bir tomonning ustunligi ostida kechadigan jarayonga aylanadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda shuni xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston jinoyat protsessida himoyachining dalil to‘plash huquqi normativ jihatdan mavjud bo‘lsa-da, uning amaliy realizatsiyasi bir qator tizimli muammolar bilan cheklangan, xususan, protsessual mustahkamlash mexanizmlari himoyachi uchun yopiq yoki cheklangan, dalil sifatida e’tirof etish vakolatining asosan davlat organlariga tegishli, shuningdek, himoyachi tomonidan to‘plangan ma’lumotlarning ikkilamchi darajada baholanib, institutsional jihatdan ayblov tomoni ustun mavqega ega bo‘lib qolmoqda. Mazkur omillar birgalikda tortishuv tamoyilining amalda to‘liq ishlamasligiga olib keladi. Shu sababli, himoyachining dalil to‘plash vakolatlarini nafaqat kengaytirish, balki ularni real protsessual

³ Andrew Ashworth, John Jackson. *Criminal Procedure and Human Rights*. – Oxford University Press.



mexanizmlar bilan ta'minlash zamonaviy jinoyat protsessining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jinoyat protsessida tortishuv tamoyilining samarali amalga oshirilishi ko'p jihatdan himoyachining protsessual maqomi va uning dalil to'plash imkoniyatlariga bog'liq. Amaldagi qonunchilikda himoyachining dalil to'plash huquqi normativ jihatdan mustahkamlab qo'yilgan bo'lsa-da, ularning amaliy realizatsiyasi yetarli darajada ta'minlanmagan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, himoyachi tomonidan yig'ilgan materiallarning dalil sifatida to'liq e'tirof etilmasligi, ularni protsessual mustahkamlash mexanizmlarining cheklanganligi hamda dalillarni baholashda ayblov tomonining ustun mavqega ega ekanligi tortishuv tamoyilining amalda to'liq ishlamasligiga olib kelmoqda. Bu esa jinoyat protsessida taraflar o'rtasidagi real tenglikni buzadi va adolatli sudlov prinsiplariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, himoyachining dalil to'plash vakolatlarini kengaytirish zarur. Xususan, unga mustaqil ravishda dalillarni protsessual jihatdan mustahkamlash imkonini beruvchi normalarni qonunchilikka kiritish lozim.

Ikkinchidan, himoyachi tomonidan to'plangan ma'lumotlarni dalil sifatida tan olishning aniq va shaffof mezonlarini belgilash lozimdir. Bu orqali himoya tomonining protsessual imkoniyatlari sezilarli darajada kengaytiriladi. Xususan, JPK 81-moddasini "Dalillar himoyachi tomonidan qonunda belgilangan tartibda to'plangan va taqdim etilgan faktik ma'lumotlar asosida ham shakllantirilishi mumkin." tarzda, shuningdek JPK 87-moddasini "Himoyachi tomonidan olingan yozma tushuntirishlar, mutaxassis xulosalari va boshqa materiallar sud tomonidan



dalil sifatida bevosita baholanadi hamda ularni qo‘shimcha protsessual harakatlar orqali tasdiqlash majburiy hisoblanmaydi, agar ular qonun talablariga zid bo‘lmasa.” tarzda to‘ldirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Uchinchidan, advokat so‘rovlariga davlat organlari tomonidan javob berish tartibini takomillashtirish hamda ularni bajarmaganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish lozim.

To‘rtinchidan, jinoyat-protsessual qonunchilikda taraflar tengligini real ta‘minlashga qaratilgan mexanizmlarni joriy etish, xususan, himoyachi va ayblov tomonining dalil to‘plash imkoniyatlarini muvozanatlashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat protsessida tortishuv tamoyilining to‘laqonli amal qilishi uchun himoyachining dalil to‘plash faoliyatini kuchaytirish va uni real protsessual mexanizmlar bilan ta‘minlash zamonaviy huquq tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Qabul qilingan: 22.09.1994.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – Qabul qilingan: 22.09.1994.
3. O‘zbekiston Respublikasi Advokatura to‘g‘risida Qonuni.

II. Ilmiy adabiyotlar va maqolalar

4. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida tortishuv prinsipining ta‘minlanishi va uning himoyachi faoliyatidagi ahamiyati // *Cyberleninka*.
URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ishni-sudga-qadar-yuritish-bosqichida->



[tortishuv-prinsipining-ta-minlanishi-va-uning-himoyachi-faoliyatidagi-ahamiyati/viewer](#)

5. Isroilov Sh.I. Jinoyat ishlarida dalil tushunchasi va ularni to‘plash hamda mustahkamlash faoliyati // ilmiy maqola.

URL: <https://spaceknowladge.com/index.php/JOISR/article/view/78>

6. Jinoyat protsessida advokat tomonidan to‘plangan ma’lumotlarning huquqiy tabiati // ilmiy maqola.

URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/122313>

III. Xorijiy ilmiy adabiyotlar

7. Andrew Ashworth, John Jackson. Criminal Procedure and Human Rights. – Oxford: Oxford University Press, 2010.